

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK  
MAHORATINI SHAKILLANTIRISH JARAYONI**

**Qulmurodova S.**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institut o'qituvchisi*

**Zokirboyeva Gulgina**

*BTU 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola: Bólajak boshlang'ich sinf óqituvchilarni bor bilim malaka va mahoratlarni oolib berish kelajakda yaxshi kadr bólíb yetishishni taminlashdan iborat .*

**Kalit so'zlar:** *O'qituvchi, mahorat, dars, Tajriba, Jamiyat, Tarbiya, , yoshlar.*

**Аннотация:** Эта статья для раскрытие знаний, умений и навыков будущих учителей начальных классов для того, чтобы они в будущем стали хорошими кадрами.

**Ключевые слова:** Учитель, навык, урок, опыт, общество, образование, молодежь

**Annotation:** *This article aims to reveal the knowledge, skills and abilities of future elementary school teachers to ensure that they become good staff in the future.*

**Keywords:** Teacher, skill, lesson, Experience, Society, Education

Bugungi jamiyatning unda yashaydiganinsonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatning yetakchi kuchlari hisoblan mish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqligi barchamizga ayon. Yurtimizda yoshlarning intellectual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash,ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarga dahldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda.Zero zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega,mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olabiladigan, o'tmish ajdodlarini har bir bosib o'tgan sharafli yo'llarini e'zozlaydigan, ajdodlarining ilmiy me'roslarini o'z o'rniда qo'llay biladigan, barkamol maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki: Respublikamizning pedagogika oliygohlarida taxsil olayot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatlarini zamonaviy bilim va ko'nikmalarini to'g'ri shakllantish jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifa sanaladi.

O'zbek xalqi azal-azaldan o'qituvchilarga yuksak e'htirom ko'rsatib kelgan bunga sabab o'qituvchining mehnatini munosib baholashning bir namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin.O'qituvchilarga bo'lgan xurmatimiz va ishonchimizning chek chegarasi yo'q. Bu kasbni egallash uchun kasbga bo'lgan mehr muhabbat bo'lishi kerak deb o'layman. O'qituvchi bu katta mahorat egasi hisoblanadi U o'quvchilarga bor bilim malakasini berib o'quvchilarni kelajak avlodga yaxshi kadr qilib yaratadi.O'qituvchi bu jamiyatimizni xalqimizni tayanchi va iftihoridi.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'qituvchining mahorati, o'quvchilar uchun juda katta ro'l o'ynaydi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchi mahoratli bo'lmasa darsga kirganda oddiy bir tushunchani o'quvchilarga yetkazib berolmasa va o'quvchilarni hammasini dars jarayoniga kiritolmasa, u insonni o'qituvchi deb bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat pedagok balki, ajoyib pisixalok bo'lishi lozim. O'qituvchi har kunlik darsni yangicha tarzda o'quvchilarni qiziqtirgan holda o'tmog'i zarur bir xillik faqatgina bolalarni zeriktirib qo'yadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilar dars o'tish jarayonida yangicha metodlar bilan dars mavzusiga yondashgan xolda olib borishi kerak.

O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berishi uchun avvalo murabbiy o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etiladi shaxslarning ta'lim muossasalarida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi. Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quydagi fazilatlar nomayon bo'lishi kerak.

-O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

-Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnalogiya yangiliklar va yutuqlardan xabardor bo'lishi talab etiladi.

-O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishalashi va izlanishi zarur.

-O'qituvchining pedagogik va pisixalogik fanlari soxlarini puxta bilish, ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va pisixalogik xususiyatlarini inobatga olgan holda faolyat tashkil ettirishi kerak.

-O'qituvchi ta'lim tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalanish imkoniga ega bo'lmg'i darkor.

-O'qituvchi ijodkor tashabuskor va tashkildorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

-O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativ layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, panomika) qonunyatlarini chuqur o'zlashtirib olishiga erishishi lozim.

-O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

-O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositralari)dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi kerak.

-O'qituvchi shaxsiy hayotida ro'li atrofdagilarga o'rnak bo'lishi lozim.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarini o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasini uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasidagi obro' etibor qozonishini ta'minlaydi.Takidlash joizki, bugungi kunda o'qituvchilar jamiyatimizning muhim bo'g'imi hisoblanadi. Chunki har qanday havas qilishga arziydiga yuksak maralar zabit etgan insonlarning ortidan xam o'qituvchilar ustozlar turadi. Aynan ularning mashaqatli mehnati evaziga shogirtlar ulkan yutuqlarga erishadilar. Shunday ekan malakali pedagoglar o'z kasbini ustalari ko'payishi yorqin kelajak uchun qo'yiladigan muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi holatlarni o'qituvchining o'zida yuqori saviyada shakllantirish maqsadida muntazam ravishda zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan holda darslarni sifatli va mazmunli o'tkazish va o'quvchilarni bilimli malakali tajribali qilib tarbiyalash kerak. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy texnika va texnologiyalarda foydalanib dars olib borishi lozim. Bunday dars tiplarini olib borishda o'qituvchida yuqori darajali malaka va mahorati bo'lishi lozim. Qobilyatli o'qituvchi o'z fanini darsga mo'ljallanga hajimdagina emas balki atroflicha keng, chuqur bilib, bu sohatda erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materiallarni mutloqo erkin agallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi. Kelajak poydevori bo'lgan yosh pedagoglar nafaqat dars o'tish qobilyati balki kiyinish odobi, nutq madaniyati, estetik didi bilan o'rnak va namuna bo'lishi lozim. Biz yosh bo'lajak o'qituvchilar uchun yuksak beminnat hissasini qo'shayotgan ustozlarga tashakkur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.“Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov, Toshkent-2009.
- 2.“Pedagogika” J.Xasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov.
- 3.“Umumiy pedagogika” N.Atayeva, F.Rashidova, M.Salayeva, S.Hasanov. Toshkent-2012